



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## TALABALARDA LISONIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA PSIXOLINGVISTIK YONDASHUV TEXNOLOGIYALARINING PEDAGOGIK ASOSLARI

**Odiljonova Kamola Abduvosit qizi**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirish masalasiga psixolingvistik yondashuv asosida ilmiy tahlil berilgan. Til va tafakkur o'zaro munosabati, nutqiy faoliyat jarayonlarining psixik mexanizmlari, shuningdek, kognitiv-psixologik jarayonlarning lingvodidaktik ahamiyati yoritilgan. Maqolada psixolingvistika nuqtayi nazaridan lisoniy tafakkurni shakllantirish texnologiyalari, ularning o'quv jarayonidagi samaradorligi, talabaning individual psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligi hamda ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi o'rni ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** lisoniy tafakkur, psixolingvistika, nutqiy faoliyat, til va tafakkur, kognitiv jarayonlar, pedagogik texnologiya.

Zamonaviy ta'lim jarayonida lisoniy tafakkurni shakllantirish masalasi nafaqat lingvovidaktika, balki psixolingvistikaning ham eng dolzarb yo'naliishlaridan biri hisoblanadi. Chunki til inson tafakkurining tashqi ifodasi bo'lib, tafakkur esa tilning ichki mohiyatini tashkil etadi. Shu sababli tilni o'rgatish jarayonida nafaqat grammatik va leksik bilimlarni singdirish, balki talabaning fikrlash qobiliyatini shakllantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masala psixolingvistik yondashuv asosida o'rganilganda, tilni idrok etish, uni ongda qayta ishslash, nutqqa tatbiq etish jarayonlari yanada samarali kechadi.

Psixolingvistika fani tilni o'zlashtirishda inson ongida yuz beradigan jarayonlarni, nutqiy faoliyatning psixik mexanizmlarini tahlil qiladi. Til va tafakkur o'zaro munosabatini chuqurroq ochib berish, talabaning til materiali bilan ishslash jarayonidagi kognitiv bosqichlarini aniqlash va ularga mos metodlarni ishlab chiqish aynan shu yondashuv yordamida amalga oshiriladi. Til birliklarini o'rganish, ularni semantik jihatdan anglash, ma'no hosil qilish va bu ma'nolarni nutqiy faoliyatda qo'llash — bularning barchasi talabaning lisoniy tafakkurini shakllantiruvchi omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Talaba nutqiy faoliyat jarayonida so'z, ibora, gap va matn kabi lingvistik birlıklarni ongida qayta ishlaydi. Bu jarayonda idrok, xotira, diqqat, tasavvur, motivatsiya kabi psixik jarayonlar faol ishtirot etadi. Masalan, matnni o'qish paytida talaba nafaqat tashqi shaklni, balki ichki mazmunni ham anglaydi, uni ongida qayta ishlaydi va mantiqiy xulosalar chiqaradi. Psixolingvistik nuqtayi nazardan qaraganda, bu jarayon kodlash va dekodlash mexanizmlariga asoslanadi. Kodlashda talaba o'z fikrini til vositalari orqali shakllantiradi, dekodlashda esa o'quvchi yoki tinglovchi sifatida boshqalarning fikrini qabul qiladi,



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



tushunadi va talqin qiladi. Oliy ta’lim jarayonida psixolingvistik yondashuv texnologiyalarini qo’llash talabalarda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki mustaqil fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Ta’limda qo’llaniladigan texnologiyalar til materialini o’zlashtirish bilan bir qatorda, talabaning tafakkur jarayonlarini ham rivojlantirishi lozim. Masalan, ijodiy yozuv mashqlari, nutqiy vaziyatlarni modellashtirish, matn asosida ma’no yaratish topshiriqlari, kontekstual o‘yinlar yoki interaktiv muloqotlar orqali talaba o’z fikrini ongli ravishda shakllantirishni o’rganadi. Bu jarayon esa lisoniy tafakkurning shakllanishiga bevosita xizmat qiladi.

Psixolingvistik yondashuv texnologiyalarining samaradorligi shundaki, ular talabaning psixologik va kognitiv imkoniyatlarini hisobga oladi. Har bir talabaning tilni idrok etish va uni ongida qayta ishlash qobiliyati individual xususiyatlarga ega. Shu sababli ta’lim jarayonida differensial yondashuvni qo’llash talab etiladi. Masalan, kuchli xotiraga ega talabalar ko‘proq leksik birliklarni tez o’zlashtira olsa, mantiqiy tafakkuri kuchli talabalar murakkab grammatik strukturalarni osonroq anglaydi. Shunday vaziyatlarda psixolingvistik texnologiyalar talabalarning individual imkoniyatlarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Lisoniy tafakkurni shakllantirishda motivatsiya ham muhim omil hisoblanadi. Tilni o’rganishda talaba qiziqishi, ichki ehtiyoji, kommunikativ maqsadlari kuchli bo‘lsa, uning psixik jarayonlari ham faol bo‘ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda motivatsiya nutqiy faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin qilinadi. Shu bois ta’lim jarayonida talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish, ularni faol muloqotga jalb qilish, nutqiy vaziyatlarni hayotiy kontekst bilan bog‘lash lisoniy tafakkurni shakllantirishning samarali yo‘llaridan biridir.

Psixolingvistik yondashuvning yana bir muhim jihat shundaki, u tilni faqat o’rganiladigan obyekt sifatida emas, balki tafakkurni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida talqin etadi. Til vositasida talaba nafaqat muloqot qiladi, balki yangi bilimlarni o’zlashtiradi, mavjud bilimlarni qayta ishlaydi, ijodiy faoliyatni amalgalashiradi. Demak, psixolingvistik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo’llash orqali til va tafakkur integratsiyasini ta’minalash mumkin. Bu esa talabalarning intellektual salohiyatini kengaytiradi, ularni mustaqil fikrlashga o’rgatadi. Shuningdek, lisoniy tafakkurni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik muhit ham muhim ahamiyatga ega. Talaba tilni faqat individual faoliyatda emas, balki ijtimoiy muloqot jarayonida ham o’zlashtiradi. O‘qituvchi va talabalar o’rtasidagi interaktiv muloqot, guruhiy mashg‘ulotlar, nutqiy munozaralar psixolingvistik yondashuv nuqtayi nazaridan samarali vosita hisoblanadi. Chunki muloqot jarayonida talaba nafaqat o’z fikrini ifodalaydi, balki boshqalarning fikrini ham qabul qiladi, uni ongida qayta ishlaydi va o’z dunyoqarashi bilan uyg‘unlashtiradi.

Oliy ta’lim jarayonida psixolingvistik yondashuv texnologiyalaridan foydalanish nafaqat lingvistik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Ular murakkab lingvistik birliklarni tahlil qilish, ularni semantik va pragmatik jihatdan talqin etish, o’z fikrini ilmiy uslubda bayon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Bu jarayon talabaning ilmiy izlanishlarga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, uni





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



yangi bilimlarni mustaqil ravishda izlab topishga undaydi. Psixolingvistik yondashuv texnologiyalari talabaning ijodiy salohiyatini ham rivojlantiradi. Tilni o‘rganish jarayonida ijodiy topshiriqlar, erkin yozuv mashqlari, muammoli vaziyatlarni hal etish faoliyati talabaning lisoniy tafakkurini chuqurlashtiradi. Bu esa uni faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi subyekt sifatida shakllanishiga olib keladi.

Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirish jarayonida psixolingvistik yondashuv texnologiyalari alohida ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Ular til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni chuqurroq ochib berish, nutqiy faoliyatning psixik mexanizmlarini aniqlash va ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkonini beradi. Ushbu texnologiyalar yordamida talaba nafaqat lingvistik bilimlarni o‘zlashtiradi, balki mustaqil, mantiqiylar va ijodiy fikrlash qobiliyatini ham shakllantiradi. Shunday qilib, psixolingvistik yondashuv texnologiyalari zamonaviy ta’limning metodologik asoslaridan biri sifatida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech’. — Moskva: Pedagogika, 1996.
2. Leontyev A.A. Psixolingvistika. — Moskva: Smysl, 2003.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. — Cambridge: MIT Press, 1965.
4. Levelt W.J.M. Speaking: From Intention to Articulation. — Cambridge: MIT Press, 1989.
5. Rakhimov N. Til va tafakkur munosabatlari: lingvopsixologik tahlil. — Toshkent: Fan, 2019.
6. Karimova D. Lisoniy tafakkur va kognitiv jarayonlar. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.

